

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI ADABIYOT  
SABOQLARIDA O`QUVCHILARNI BADIY TAHLILGA O`RGATISH**

***NISHONOVA XURSHIDA YUSUFJANOVNA***

*O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi*

*O`zbek tili, adabiyoti va folklori instituti,*

*Tayanch doktoranti*

***Annotatsiya.*** Ushbu ma`qolada umumiy o`rta ta`lim maktablarida tashkil etiladigan adabiyot saboqlarida o`quvchilarni badiiy tahlilga o`rgatishning yo`l-yo`riqlari haqida so`z boradi.

***Kalit so`zlar.*** Ilmiy tahlil, o`quv tahlili, uslub, interfaol metodlar, asar kompozitsiyasi, obrazlar tipologiyasi.

**ОБУЧЕНИЕ УЧАЩИХСЯ ХУДОЖЕСТВЕННОМУ АНАЛИЗУ  
НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ ОБЩИХ СРЕДНИХ ШКОЛ**

***НИШОНОВА ХУРШИДА ЮСУФЖАНОВНА***

*Академия наук Республики Узбекистан*

*Институт узбекского языка, литературы и фольклора,*

*аспирант*

***Абстрактный.*** В данной статье говорится о методических указаниях по обучению учащихся анализу искусства на уроках литературы, организованных в общеобразовательных школах.

***Ключевые слова.*** Научный анализ, образовательный анализ, стиль, интерактивные методы, композиция работы, типология изображений.

**TEACHING STUDENTS TO ARTISTIC ANALYSIS IN  
LITERATURE LESSONS OF GENERAL SECONDARY SCHOOLS**

# ***Modern education and development***

---

***NISHONOVA KHURSHIDA YUSUFJANOVNA***

*Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan*

*Institute of Uzbek language, literature and folklore,*

*Foundation PhD student*

***Abstract.*** This article talks about the guidelines for teaching students to analyze art in literature classes organized in secondary schools.

***Key words.*** Scientific analysis, educational analysis, style, interactive methods, composition of work, typology of images.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida adabiy ta‘lim sof ilmiy maqsadlar bilan birga ma`naviy-axloqiy yo‘nalishlar ustuvorligini ko‘zda tutadi. O‘quvchilar milliy adabiyot, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘qish va tahlil qilish asosida adabiyot nazariyasini o‘zlashtirish, badiiy asarda ifodalangan estetik joziba va badiiy mantiq bilan bir qatorda ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go‘zallik va xunuklik haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi, ularga ongli va jonli munosabat bildirishadi, shular asosida o‘zlaridagi axloqiy-ma`naviy fazilatlar majmuining shakllanishi va rivojiga imkon topishadi.

Adabiyot darslarida berilgan badiiy matn tahlilini o‘quvchilarga o‘rgatish, tahlili qilingan matndan kerakli fikrlarni anglash va anglatish kompetensiyalarini shakllantirish bugungi adabiyot muallimlari zimmasidagi mas`uliyatli vazifalardan biri bo‘lib turibdi. Buning uchun esa o‘qituvchilarning o‘zлari asarni badiiy tahlil qillish usullarini mukammal bilishlari, ayni kun talabi bo‘lgan interfaol usullarni saboqlarda o‘quvchi yoshiga mos shaklda to‘g‘ri tanlay bilishlari zarur. Masalan, “*Aqliy hujum*”, “*Ikki qismli kundalik*”, “*Mening fikrim o‘zgacha*”, “*Zanjirli fikr*”, “*Timsollar tahlili*”, “*Muammoli vaziyat*” kabi usullar adabiyot mualliminning eng kerakli yordamchisiga aylanadi. Berilgan barcha adabiyot darslarining asosi badiiy asar tahliliga bag`ishlanadi. Biroq bugungi umumta‘lim maktablari tizimida asar tahliliga yondoshishda qotib qolgan eski metodlardan foydalanish hali hanuz mavjud. Ijodkor tarjimai holidan

keyin o‘qituvchi badiiy asarni ikki nuqtadan, ba`zan, bir abzatsdan o‘qitish, agar o‘qitilayotgan asar lirik asar bo‘lsa, uni yod olish, nasriy asar bo‘lsa, so‘zlab berish vazifasini yuklatish bilangina kifoyalaniladi. Alaloqibat o‘qituvchi adabiyot darsidan zerikadi, hatto bu mashg‘ulotga kelmay ham qoladi. Ba`zan o‘quvchi asardan olgan taassurotlari, undagi timsollardan qaysi biri yoqqani so‘ralsa, asarning mazmunini yodlab olgan to‘tiqushdek birma-bir sanab o‘tadi.

Bularning ham o‘ziga xos sabablari bordir, biroq yodlagan, mazmuni anglanmay so‘zlashga tayyorlangan o‘quvchi asarning nozik mazmuni, badiiy va hayotiy matig`ini anglamaydi. DTS nazarda tutgan natija, ya`ni turli davr va mamlakatlarda, turlicha dunyoqarash va e`tiqodlarni aks ettirgan badiiy asarlarning eng yuksak namunalari bilan oddiydan murakkabga tamoyiliga asosan tanishib borish, ular asosida o‘quvchilarda olam va insonlar tabiatining rang-barangligi, ularning takrorlanmasligi, ayni paytda olamning, butun bashariyatning bir butunligi haqidagi tasavvur va qarashlar shakllanib, kengayib, mustahkamlanib borish, eng muhimi, u olam va odamga tegishli bo‘lgan barcha hodisalarga emotsiyal (hissiy) munosabat bildira oladigan darajaga ko‘tarilishi, qarashlar, dunyoqarashlar, nuqtai nazarlar xilma-xilligini kuzatish imkoniga ega bo‘lmay qoladi. Shuning uchun badiiy tahlil adabiyot darslarida eng muhim jarayon sanaladi.

Kuzatib borganim adabiyot nazariyasi va amaliyotiga aloqador ko‘pchilik manbalarda badiiy asar tahlili qanday maqsadda amalga oshirilishiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi.

1. Ilmiy(filologik) tahlil
2. O‘quv(didaktik) tahlil

O‘quv tahlili mohiyatan ilmiy tahlilga o‘xshasa-da, undan farq qiladigan xususiyatlari bor. Filologik tahlilda filolog mutahassis na vaqt, na makon, na tahlilni qabul qiluvchining alohida jihatlariga ko‘ra cheklangan bo‘ladi.

O‘quv tahlilida esa har qanday asar ham makon, ham zamon, hamda o‘quvchining intellektual imkoniyatlari nuqtai nazaridan muayyan qoliplarga bo‘ysunadi. Chunonchi har qanday asarda o‘quv tahlili sinfdagilarning yoshiga

intellektual darajasiga va ularga ajratilgan vaqtga muvofiq kelishi kerak. Agar filolog olim muayyan bir asar haqidagi qarashlarini istagancha davom etdirishi mumkin bo‘lsa, o‘quv tahlilida ajratilgan vaqt va o‘quvchilarning yoshi hisobga olinadi. Filologik tahlil bir olim tomonidan amalga oshiriladi, ammo didaktik tahlil o‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim. SHunga ko‘ra o‘quv tahlili hamisha jamoaviy xususiyat kasb etadi.

Odatda filologik tahlil mantiqiy yo‘nalishga ega bo‘ladi, o‘quv tahlili mantiqiy yo‘nalish bilan birga pedagogik maqsadni ko‘zda tutadi. Umumiy o‘rtta ta‘lim tizimi adabiyot ta‘limida filologik tahlildan ko‘ra o‘quv tahlili yaxshi samara beradi.

Aytilganlarga ko‘ra o‘quv tahlilidan ko‘zda tutilgan maqsad va uning oldida turgan vazifalar o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘ladi. SHundan kelib chiqib o‘quv tahliliga quyidagicha ta‘rif berish mumkin. “*Adabiy asar matnining hayotiy va badiiy mantig‘i hamda estetik jozibasini ochish orqali o‘quvchilarda barkamol shaxsga xos ma`naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik faoliyat o‘quv tahlili hisoblanadi*”.

O‘quv tahlili tahlil jarayonida qatnashayotgan o‘quvchilarning miqdoriga ko‘ra 3 turli bo‘ladi.

1. Individual tahlil.
2. Guruhiy tahlil.
3. Ommaviy (frontal) tahlil.

Individual tahlilda badiiy asar bilan tanishilgach, sinfdagi har bir o‘quvchiga o‘rganilayotgan asar yuzasidan alohida topshiriq beriladi.

Deylik, 7-sif Adabiyot sabog‘ida Asqad Muxtorning “Tug‘ilish” she‘ri o‘rganilgan bo‘lsin. O‘qituvchi sinfdagi bir o‘quvchiga ushbu she‘r badiiyatini ta‘minlashda o‘xshatishlarning o‘rnini, ikkinchisiga sifatlashning xizmatini, uchinchisiga she‘rda tasvirlangan timsollar(shamol, tong, bola)ning o‘rnini, navbatdagisiga lirik qahramon(muallif) obrazi, yana biriga “Tug‘ilish” timsolini aniqlash, uning vazifasini belgilashni topshiradi. Va har bir o‘quvchi tahlilni individual yo‘sinda amalga oshiradi.

Guruhiy tahlilda sinf o‘quvchilari muayyan prinsiplarga ko‘ra, ma`lum guruhlarga bo‘linadi va oldingiga o‘xhash vazifalarni har bir guruh oldiga qo‘yadi. Masalan Uvaysiy she’riyati sanalmish “Uvaysiyman” radifli g‘azalining tahlili jarayonida birinchi guruh, “Asarning bosh g‘oyasi va unda qahramon harakteri”ga tavsif, ikkinchi guruh “G‘azalning shakliy unsurlari(qofiya, radif, vazn)”, uchinchi guruhga esa “Asardagi she’riy san`atlar(Tanosib, o‘xshatish, tazod) haqida tushuncha” kabi topshiriqlarni bajarishga undaladi. Albatta bu shakldagi savollar guruh sardorlarining tanlovi asosida tashkil etiladi. Guruhdagi o‘quvchilar bu vazifalarni jamoa bo‘lib bajaradilar va ularning faoliyati jamoaviy yo‘sinda baholanadi.

Frontal tahlilda esa tahlil jarayonida barcha o‘quvchilar qatnashadi, lekin tahlilini o‘qituvchi amalga oshiradi. O‘quv tahlili kechimida so‘zsiz amal qilinishi lozim bo‘lgan oltin qoida bor. Bunga ko‘ra tahlil qilinayotgan asarning janriga, hajmiga, xususiyatiga qaramay uning mazmunini aytib berish va so‘rash mumkin emas. Mazkur tahlilda o‘qituvchi “Aqliy hujum”, “Mening fikrim o‘zgacha”, “Ikki qisqli kundalik” kabi usullardan foydalanish orqali samarali natijaga erishish mumkin. Mazkur tahlilda o‘quvchi birinchilikka, faollikka va o‘zgachalikka intiladi.

O‘quv tahlili mantiqiy xususiyatlari va amalga oshirilish shakliga ko‘ra quyidagicha turlarga ajratiladi.

1. Tekstual tahlil
2. Timsollar tahlili
3. Muammoli tahlil

Matnga ergashib tahlil qilinganda o‘rganilayotgan asar matni nima bilan boshlangan bo‘lsa, tahlil ham deyarli shunday boshlanadi. Tasvir qanday davom etsa, tahlilda ham ana shu tartibga amal qilinadi. Tahlilning bunday turida matndan chetga chiqishga yo‘l qo‘yilmaydi. Matnda uchragan har bir so‘z va iboraning mohiyati inobatga olinadi, vazifasi belgilab beriladi.

She`rlar, darsliklarda keltirilgan kichik hajmdagi hikoya, masal va ertaklar shunday shaklda tahllga tortilishi qulay.

Timsollar asosidagi tahlilda hajmi katta dars mobaynida matn asosida tahlil qilish mumkin bo‘lmagan epik va dramatik asarlar tahlil qilinadi. Bunga ko‘ra o‘rganilayotgan asarning badiiy va hayotiy mantig‘i va estetik jozibasi asarda aks ettirilgan timsollarga xos xususiyatlarni aniqlash mumkin. Masalan Alpomish dostonida berilgan har bir obrazga alohida tavsif berish orqali timsollar umulashtiriladi.

Tahlilning 3- ko‘rinishi muammoli tahlil. Unda tekshirilayotgan asar matni bilan tanishib bo‘lingach, o‘quvchilar oldiga muammo qo‘yiladi. Bu muammo butun sinf yoki guruh oldiga qo‘yilishi mumkin.

Masalan, “SHoh Edip” asari yuzasidan butun sinf oldiga “Edip aybdormi yoki gunohkormi?”, Saodat sohili” asari yuzasidan “SHoh Boburning sarkarda va shoir Boburdan farqli jihatlari asarda qanday aks ettirilgan?” tarzida muammo qo‘yilishi mumkin. Muammoli tahlil, asosan, individual yo‘sinda amalga oshiriladi va ko‘proq o‘quvchilar ishtirok etadi.

Ayish mumkinki, umumiy o`rta ta`lim mакtablarida o`quvchilarni badiiy tahlilga o`rgatish orqali ularda 4 K metodida nazarda tutilgan layoqatni shakllantirish, shu bilan birga olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo`llash malakasini shakllantirish mumkin. Bu albata ta`lim kechimida ijobiy natija berishi shubhasiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Ройзензон Л.И., Малиновский Е.А., Хаютин А.Д. Очерки по истории становления фразеологии как лингвистической дисциплины. – Самарканд, 1975. – С. 5-70.
2. Рўзиева Д., Усмонбоева М., Холиқова З. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланиши. – Т.: 2013.
3. Сластенин В.А. и др. Педагогика. – М.: “Академия”. 2002
4. Собирова М. Она тили бўйича дидактик ўйинлар. // Тил ва адабиёт таълими. 2012 й. 9-сон, 11-бет.
5. Толипова Ж. Педагогик квалиметрия модули бўйича маъruzalар матни ва амалий машғулотлар. –Т.: 2015.

6. Тўлабоев Қ. Ҳозирги замон дарсларига талаблар ва уларни балл асосида баҳолаш тажрибасидан. – Наманган, 1996.
7. Турғунов Т. Ўқувчиларни мустақил фаолиятга йўналтириш тажрибасидан. // Тил ва адабиёт таълими. 2013 й. 5-сон, 11-бет.